

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE THEMATIC STRUCTURE OF ENGLISH SLANG: DOMAINS OF USE AND NOMINATIVE SOURCES****Bunyodbek Sotvoldiyev***Associate Professor at Andijan State Institute of Foreign Languages**Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**E-mail: b.sotvoldiyev91@gmail.com**ScienceID: FAN-0925-0007**Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: English slang; thematic structure; nomination; semantic field; sociolect; metaphor; slang lexicography.

Received: 03.09.26**Accepted:** 04.09.26**Published:** 05.09.26

Abstract: The article examines the thematic structure of English slang through two independent but interrelated dimensions: the communicative domains in which slang units are used and the semantic fields that supply sources for new slang nominations. The material combines historical records from the author's working files with 86 units drawn from household vocabulary, anthroponyms, toponyms, zoonyms, phytonyms, somatisms, professional terms, brand names, colour terms and numerals. Descriptive, componential, semantic-field, comparative and quantitative methods distinguish highly, moderately and weakly productive sources. The highly active layer accounts for 54.7 percent of the sample, the moderately active layer for 32.6 percent, and the weakly active layer for 12.8 percent. The findings show that thematic activity depends on community needs, historical period, communicative setting and evaluative strategies. Separating a domain of use from a source of nomination is proposed as a methodological principle for semantic classification and slang lexicography. The model also supports double thematic tagging in electronic dictionaries, translation and corpus research.

INGLIZ SLENGINING TEMATIK TUZILISHI: QO'LLANILISH SOHALARI VA NOMINATIV MANBALAR

Bunyodbek Sotvoldiyev

*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: b.sotvoldiyev91@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FAN-0925-0007

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ingliz slengi; tematika; nominatsiya; semantik maydon; sotsiolekt; metafora; sleng lug'atchiligi.

Annotatsiya: Maqolada ingliz slengining tematik tuzilishi ikki mustaqil, ammo o'zaro bog'liq yo'nalishda tadqiq etiladi: sleng birliklari qo'llanadigan kommunikativ mavzular va yangi sleng nominatsiyasiga manba bo'ladigan semantik sohalar. Tadqiqot materiali mualliflik kartotekasidagi tarixiy qaydlar hamda uy-ro'zg'or buyumlari, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, somatizmlar, professionalizmlar, ergonimlar, rang va raqam nomlarini qamrab olgan 86 birlikdan iborat. Tavsifiy, komponent, semantik maydon, qiyosiy va miqdoriy metodlar orqali yuqori, o'rtacha va past faollikdagi nominativ manbalar ajratildi. Natijalar yuqori faol qatlam 54,7 foiz, o'rtacha qatlam 32,6 foiz, past faol qatlam 12,8 foizni tashkil etganini ko'rsatdi. Tematik faollik til jamoasining ehtiyoji, davr, muloqot muhiti va baholash strategiyasiga bog'liq ekani asoslandi. Maqolada qo'llanish mavzusi bilan nominatsiya manbasini aralashtirmaslik sleng lug'atchiligi va semantik tasnif uchun muhim metodologik mezon sifatida taklif qilinadi. Miqdoriy ko'rsatkichlar real nutqdagi mutlaq chastotani emas, kartoteka doirasidagi mahsuldorlikni ifodalashi ta'kidlanadi. Taklif etilgan model elektron lug'at, tarjima va korpus tadqiqotlarida birliklarni qo'llanish sohasi hamda nominativ manbasi bo'yicha ikki yo'nalishda amaliy tarzda belgilash imkonini beradi.

ТЕМАТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА АНГЛИЙСКОГО СЛЕНГА: СФЕРЫ УПОТРЕБЛЕНИЯ И НОМИНАТИВНЫЕ ИСТОЧНИКИ

Бунёдбек Сотволдиев

*Доцент Андижанского государственного института иностранных языков,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам*

E-mail: b.sotvoldiyev91@gmail.com

Научный идентификационный номер: FAN-0925-0007

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: английский сленг; тематика; номинация; семантическое поле; социолект; метафора; лексикография сленга.

Аннотация: В статье тематическая структура английского сленга рассматривается в двух самостоятельных, но взаимосвязанных направлениях: коммуникативные темы употребления сленговых единиц и семантические области, служащие источниками новой сленговой номинации. Материал исследования включает исторические записи авторской картотеки и 86 единиц, объединяющих названия предметов быта, антропонимы, топонимы, зоонимы, фитонимы, соматизмы, профессионализмы, эргонимы, цветообозначения и числительные. С помощью описательного, компонентного, полевого, сопоставительного и количественного методов выделены источники высокой, средней и низкой активности. Установлено, что высокоактивный слой составляет 54,7 процента, среднеактивный — 32,6 процента, а низкоактивный — 12,8 процента выборки. Тематическая активность определяется потребностями языкового сообщества, эпохой, коммуникативной средой и оценочными стратегиями. Разграничение темы употребления и источника номинации предлагается как важный методологический принцип семантической классификации и составления словарей сленга. Подчеркивается, что количественные показатели отражают продуктивность внутри картотеки, а не абсолютную частотность единиц в живой речи. Предложенная модель может применяться в электронных словарях, переводе и корпусных исследованиях для двойной тематической разметки с учетом даты фиксации и прагматических ограничений употребления при практическом анализе языковых данных.

Kirish. Sleng umumxalq tili tarkibida mavjud bo'lgan, biroq rasmiy me'yorlardan tashqarida ishlaydigan dinamik leksik qatlamdir. Uning birliklari faqat norasmiy shakli bilan emas, balki qaysi tajribani nomlashi, qaysi guruhda tarqalishi va qanday baholovchi munosabatni ifodalashi bilan ham farqlanadi. Dumas va Lighter slengni formal nutqning uslubiy darajasini pasaytiruvchi, guruhga xos bilimni ko'rsatuvchi yoki umumqabul qilingan sinonim o'rnida

ishlatiluvchi birliklar orqali tavsiflaydi (Dumas & Lighter, 1978, pp. 14–16). Keyingi tadqiqotlarda esa slengning ijodkorlik, birdamlik va identifikatsiya vositasi ekaniga ko‘proq urg‘u berildi.

Slengni tematik jihatdan o‘rganish til jamoasi e‘tiborining qaysi sohalarga yo‘nalganini ko‘rsatadi. Green slengning mavzu doirasi adabiy tilga qaraganda torroq, ammo ayrim mavzulardagi sinonimik zichligi nihoyatda yuqori ekanini ta‘kidlaydi (Green, 2016, pp. 32–58). Bu holat slengning barcha voqelikni bir xil darajada nomlamasligini, balki so‘zlovchilar uchun emotsional, ijtimoiy yoki amaliy jihatdan dolzarb bo‘lgan segmentlarni tanlashini anglatadi. Tanlov davr, makon, guruh yoshi, kasb, qiziqish va kommunikativ kanalga qarab yangilanib boradi.

Tematik tahlilda ikki hodisani farqlash zarur. Birinchisi — sleng qo‘llanadigan mavzu: so‘zlovchilar norasmiy birliklardan foydalangan holda nima haqida gapiradi? Ikkinchisi — sleng nominatsiyasining manbai: yangi ko‘chma nom qaysi semantik maydondagi standart birlik asosida yaratiladi? Masalan, money mavzusi sleng qo‘llanadigan faol soha bo‘lishi mumkin; apple birligining pul qiymatini bildirish uchun qayta ma‘nolanishida esa o‘simlik va meva nomlari nominativ manba vazifasini bajaradi. Natijada qo‘llanish obyekti bilan obraz manbai bir-biriga teng emas.

Maqolaning maqsadi ingliz slengining tematik tuzilishini ana shu ikki o‘lchov asosida tavsiflash va nominativ manbalarning faollik darajasini aniqlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun slengning davriy mavzu siljishlari tavsiflandi; mavjud nazariy qarashlar qiyoslandi; 86 birlik tematik manbasiga ko‘ra guruhlandi; yuqori, o‘rtacha va past faollikdagi qatlamlar miqdoriy baholandi; leksikografik tavsif uchun ikki o‘qli model taklif etildi. Ishning yangiligi “mavzu” tushunchasini qo‘llanish sohasi va nominativ manba sifatida alohida belgilashidir.

Adabiyotlar tahlili. Slengning ta‘riflari uning ijtimoiy va uslubiy tabiati o‘rtasida tebranadi. Dumas va Lighter taklif qilgan mezonlarda norasmiylik, guruhiy tanishlik, tabu va standart sinonimni almashtirish yetakchi o‘rin tutadi (Dumas & Lighter, 1978, pp. 5–17). Mattiello slengni bir tomondan muayyan guruhga bog‘langan sotsiolektal qatlam, ikkinchi tomondan esa kengroq norasmiy lug‘at sifatida izohlaydi; u slengning semantik maydonlar, polisemiya va yashirin ma‘no yaratish orqali murakkab leksik tizim hosil qilishini ko‘rsatadi (Mattiello, 2008, pp. 31–47). Demak, mavzu tasnifi slengni alohida so‘zlar yig‘indisi emas, tizimli leksik maydon sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Eble slengni doimiy o‘zgarib turadigan, guruh birdamligi va ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytiruvchi kollokvial birliklar majmui deb ta‘riflaydi (Eble, 1996, p. 18). Uning talaba slengi materiallari mavzuning guruh kundalik tajribasi bilan bevosita aloqadorligini ko‘rsatadi. Stenström, Andersen va Hasund yoshlar nutqini korpus asosida tahlil qilib, mavzu, so‘zlovchi

tarkibi va kommunikativ vaziyat bir-biridan ajratilmasa, leksik birlikning ijtimoiy qiymatini to'liq izohlab bo'lmashligini ko'rsatadi (Stenström et al., 2002, pp. 13–26). Bu fikr tematik birliklarning faolligini faqat lug'atdagi son bilan o'lchash yetarli emasligini anglatadi.

Coleman slengning tarixiy hayotini ijtimoiy guruhlar, davrlar va tarqalish kanallari bilan bog'lab, yangi birlikning muayyan guruhga qo'shilish, ichki va tashqi chegarani belgilash hamda umumiy qadriyatlarni ifodalashdagi rolini yoritadi (Coleman, 2012, pp. 1–20). Adams esa slengni "xalq poetikasi" deb baholab, standart sinonim o'rniga obrazli birlik tanlash so'zlovchining faqat ma'no emas, munosabat va ijtimoiy pozitsiyani ham yetkazishini ta'kidlaydi (Adams, 2009, pp. 49–67). Shuning uchun tematik nominatsiya kognitiv-assotsiativ jarayon bilan pragmatik tanlovning kesishgan nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi.

Greening tarixiy va elektron lug'atchilik tajribasi sleng tematikasini uzoq vaqt oralig'ida kuzatish imkonini beradi. Uning tasnifida pul, noqonuniy faoliyat, zararli odatlar, shaxslararo munosabatlar, politsiya, ahmoqlik va boshqa kundalik sohalar chuqur sinonimik qatorlar hosil qiladi (Green, 2016, pp. 32–58; Green, n.d.). Biroq lug'atdagi birliklar soni jamiyatdagi real suhbat chastotasiga aynan teng emas: tarixiy hujjatlar, nashrlar va lug'atchining qamrov strategiyasi natijaga ta'sir qiladi. Shu bois lug'at materiali "qaysi mavzu mavjud?" savoliga ishonchli javob bersa-da, "qaysi mavzu eng ko'p ishlatiladi?" savoli uchun korpus dalili bilan to'ldirilishi kerak.

Slengning nozik mavzularga moyilligi ham uning tematik tabiatini belgilaydi. Allan va Burrige tabu, evfemizm, haqorat, jargon va sleng o'rtasidagi aloqani kommunikativ vaziyat hamda adresatga bog'liq holda tushuntiradi (Allan & Burrige, 2006, pp. 40–55). Zamonaviy yondashuvda esa slengning barcha ko'rinishini salbiy yoki qo'pol leksika bilan tenglashtirish rad etiladi. Damirjian slengning guruh-identifikatsion vazifasini "identitet", "chegara" va "birdamlik" o'lchovlarida tahlil qiladi (Damirjian, 2025, pp. 138–156). Bu qarash tematika nafaqat nimani nomlash, balki so'zlovchining kimligini va kimga murojaat qilayotganini ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Metodologiya. Tadqiqot materiali ikki qismdan tuzildi. Birinchi qism mualliflik ishchi kartotekasida 1900-yillardan XXI asrgacha qayd etilgan tematik-davriy kuzatishlardan iborat. Ikkinchi qism sleng nominatsiyasining manba sohalarini ifodalovchi 86 birlikni qamrab oladi. Birliklar uy-ro'zg'or buyumlari va asboblari, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, somatizmlar, professionalizmlar, ergonimlar, ranglar, raqamlar, etnonimlar, oziq-ovqat, geometrik shakllar va tabiat hodisalari kabi 14 kichik guruhga ajratildi.

Tahlil besh bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda birlikning standart ma'nosi va kartotekada qayd etilgan sleng ma'nosi qiyoslandi. Ikkinchi bosqichda standart ma'no tegishli bo'lgan semantik maydon nominativ manba sifatida belgilandi. Uchinchi bosqichda o'xshash kichik guruhlar faollik darajasiga ko'ra yuqori, o'rtacha va past qatlamlarga birlashtirildi.

To'rtinchi bosqichda har bir qatlamning soni va tanlamadagi foizi hisoblandi. Beshinchi bosqichda olingan natijalar tematik qo'llanish haqidagi nazariy qarashlar bilan qiyoslandi.

Tavsifiy metod slengning qo'llanish vaziyati va davriy o'zgarishini yoritishda, komponent tahlil standart hamda ko'chma ma'no o'rtasidagi umumiy semani aniqlashda, semantik maydon metodi birliklarni manba mavzulariga birlashtirishda qo'llandi. Qiyosiy metod qo'llanish mavzusi bilan nominativ manba o'rtasidagi tafovutni ochdi. Miqdoriy hisob esa faollik qatlamlarini ichki tanlama doirasida solishtirish imkonini berdi. Foizlar til tizimining mutlaq statistik ko'rsatkichi emas, tanlangan 86 birlik tarkibidagi nisbat sifatida talqin qilindi.

Tasnifning asosiy birligi alohida leksema yoki turg'un birikma bo'ldi. Ko'p ma'noli birliklar kartotekadagi konkret sleng ma'nosi asosida hisoblandi. Bir shakl turli ma'nolarda qayd etilgan bo'lsa, har bir mustaqil leksik-semantik variant alohida birlik sifatida qaraldi. Biroq grafik variantlar va bir ma'noning imlo shakllari takroran sanalmadi. Bunday me'yorlash foizni sun'iy ko'paytirishning oldini oldi.

Materialda ijtimoiy jihatdan nozik, kamsituvchi yoki yoshga doir cheklangan mazmundagi tarixiy birliklar ham uchraydi. Tadqiqot etikasi nuqtayi nazaridan bunday birliklar batafsil takrorlanmadi; ular faqat umumiy tematik guruh va tarixiy tendensiyaning belgilash uchun hisobga olindi. Tahliliy misollar sifatida neytral uy-ro'zg'or, ism, joy, hayvon, o'simlik, tana a'zosi, kasb, rang va raqam nomlaridan foydalanildi. Bu cheklov ilmiy tasnifni saqlagan holda keraksiz stigmatizatsiyani kamaytiradi.

Natijalar. Birinchi natija slengning tematik tuzilishi ikki xil savolga javob berishini ko'rsatdi. "Sleng nimani nomlaydi?" savoli qo'llanish mavzusini, "sleng nimaning nomi orqali yaratiladi?" savoli nominativ manbani aniqlaydi. Ushbu ikki ko'rsatkich ayrim hollarda mos keladi, lekin ko'pincha turli semantik maydonlarga tegishli bo'ladi. Masalan, green shakli rang nomidan kelib chiqib, pulni ifodalashi mumkin; demak, qo'llanish mavzusi — pul, nominativ manba — rang. Ana shu farqlash tasnifdagi takror va mantiqiy chalkashlikni kamaytiradi.

Ikkinchi natija tarixiy kartotekada mavzularning davriy almashinuvi kuzatilganini ko'rsatdi. XX asrning dastlabki qismida urush, yopiq guruhlar va noqonuniy faoliyat bilan bog'liq birliklar ko'proq qayd etilgan; asrning keyingi davrlarida ommaviy madaniyat, yoshlar tajribasi, zararli odatlar va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq qatamlar kengaygan. XXI asr raqamli muloqot, o'yin, musiqa, moda va internet hamjamiyatlariga oid birliklarning tez tarqalishi bilan ajralib turadi. Bu kuzatish lug'atdagi qaydlar asosida berilgani uchun jamiyatdagi aniq suhbat chastotasi deb emas, tarixiy leksik repertuar tendensiyasi deb baholandi.

Uchinchi natijaga ko'ra, nominativ manbalar orasida kundalik va konkret obrazlar ustunlik qiladi. Uy-ro'zg'or buyumlari hamda asbob-uskunalar 11 birlik, zoonimlar 9, fitonimlar 9, somatizmlar 7, toponimlar 6 va antroponimlar 5 birlik bilan yuqori faol qatlamni hosil qildi. Ushbu

oltita guruh jami 47 birlikni yoki tanlamaning 54,7 foizini tashkil etdi. Natija sleng nominatsiyasida ko'rish, ushlar va kundalik tajribada tez tanish mumkin bo'lgan obrazlar samarali manba ekanini ko'rsatadi.

1-jadval. Sleng nominatsiyasining tematik manbalari faollik darajasi bo'yicha (n = 86)

Faollik darajasi	Tarkibiga kirgan tematik manbalar	Soni	Ulushi
Yuqori	Texnonimlar, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, somatizmlar	47	54,7 %
O'rtacha	Professionalizmlar, ergonimlar, rang nomlari, raqamlar	28	32,6 %
Past	Etnonimlar, oziq-ovqat nomlari, geometrik shakllar, tabiat hodisalari	11	12,8 %
Jami	14 ta kichik tematik guruh	86	100 %

O'rtacha faol qatlam professionalizmlar, ergonimlar, rang nomlari va raqamli birliklardan tuzildi. Ularning umumiy soni 28 ta, ulushi 32,6 foizdir. Professional nomlar ijtimoiy rol yoki xususiyatni ko'chma ifodalashi, brand va tashkilot nomlari esa ommaviy assotsiatsiyani ishga solishi bilan ajralib turadi. Ranglar baholovchi va ramziy semalarni, raqamlar esa kod, model, vaqt yoki guruhga xos ishorani ixcham shaklda beradi. Ushbu qatlam kundalik obrazlarga qaraganda ko'proq madaniy bilim va kontekst talab qiladi.

Past faol qatlamga etnonimlar, oziq-ovqat nomlari, geometrik shakllar va tabiat hodisalari kirdi. Ular 11 birlik yoki 12,8 foizni tashkil etdi. Miqdorning kamligi mazkur sohalar sleng yaratishda umuman ishlaymaydi degani emas; faqat tanlangan kartotekada ularning mahsuldorligi pastroq. Ayniqsa, etnonim asosidagi ko'chishlar kamsituvchi stereotipga aylanish xavfiga ega bo'lgani sabab, ularni lug'atda tarixiy, uslubiy va pragmatik belgisiz berish maqsadga muvofiq emas.

To'rtinchi natija tematik guruhlarining faolligi faqat referent soniga bog'liq emasligini ko'rsatdi. Kundalik buyum, tana a'zosi, hayvon yoki o'simlik nomi ko'pincha aniq tashqi belgi, xulq, shakl, rang yoki funksiyani eslatadi. Shu sababli u yangi referentga obrazli ko'priklar yaratadi. Ironing eski kompyuter, pan va hoover birliklarining yuz hamda burun, turtle birlikning tajribali shaxs, starlingning yosh ijrochi kabi ma'nolarda qayta talqin qilinishi vizual yoki funksional o'xshashlikka tayanadi. Bunda lug'aviy ma'no yo'qolmaydi, balki yangi kontekstda ikkilamchi motivatsiya vazifasini bajaradi.

Beshinchi natija sleng lug'ati uchun ikki o'qli belgilash tizimini zarur deb ko'rsatdi. Birinchi o'qda birlikning qo'llanish mavzusi: pul, shaxs, kasb, dam olish, texnologiya, musiqa yoki boshqa soha ko'rsatiladi. Ikkinchi o'qda nominativ manba: rang, raqam, zoonim, fitonim, somatizm, antroponim va hokazo belgilanadi. Masalan, apple pulga oid sleng sifatida "pul" mavzusida, lekin "fitonim asosidagi nominatsiya" sifatida ikkinchi o'qda tavsiflanadi. Mazkur yechim elektron lug'atda bir birlikni ikki xil qidiruv yo'li bilan topish imkonini beradi.

Muhokama. Olingan natijalar Greenning sleng mavzulari keng emas, ammo ayrim sohalarda sinonimik zichlik kuchli degan xulosasi bilan mos keladi (Green, 2016, pp. 32–58). Sleng adabiy tilning barcha mavzularini teng darajada qamrab olmaydi. U kundalik hayotda baholash, hazil, yaqinlik, qarshilik yoki maxfiylik kuchli bo'lgan obyektlarni qayta-qayta nomlashga moyil. Bir referent uchun ko'plab variantning mavjud bo'lishi axborot ehtiyojidan ko'ra guruhiiy uslub va ekspressiv yangilanish ehtiyojini ko'proq ifodalaydi.

Tematik tanlovning tarixiyliigi sleng birliklarini sinxron ro'yxat sifatida emas, doimiy harakatdagi qatlam sifatida ko'rishni talab qiladi. Muayyan davrda faol bo'lgan ijtimoiy tajriba yangi nomlar yaratadi; tajriba dolzarbligini yo'qotsa, birlik passivlashadi yoki tarixiy belgi oladi. Aksincha, internet va raqamli platformalar mahalliy guruh birligini juda tez ommalashtirishi mumkin. Green slengning kelajagini raqamlashtirilgan, ko'p hamjamiyatli muhit bilan bog'laydi (Green, 2016, pp. 115–124). Shuning uchun lug'atdagi sana faqat ilk qayd emas, birlikning tematik faoliyatini kuzatish vositasi hamdir.

Yuqori faol nominativ manbalarning konkret obrazlarga tayanishi kognitiv iqtisod bilan izohlanadi. So'zlovchi yangi shakl yaratmasdan, tayyor birlikning eng yorqin komponentini yangi referentga ko'chiradi. Tana a'zolari shakl va funksiyani, hayvon nomlari xulq va bahoni, o'simlik nomlari rang va tashqi ko'rinishni, shaxs ismlari esa tipik rol yoki stereotipni faollashtiradi. Mattiello sleng semantikasida metafora, metonimiya, polisemiya va sinonimiya bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar ekanini ko'rsatadi (Mattiello, 2008, pp. 176–218). Demak, tematik manba so'zlovchi uchun tez tiklanadigan assotsiativ sxema vazifasini bajaradi.

Biroq motivatsiya barcha adresatlar uchun bir xil darajada ochiq emas. Guruh a'zosi apple, green yoki 808 kabi birlikni tezda tushunishi mumkin, tashqi adresat esa standart ma'noda qolib ketadi. Damirjian ta'riflagan identitet, guruh chegarasi va birdamlik funksiyalari aynan shu farq orqali yuzaga chiqadi (Damirjian, 2025, pp. 145–153). Birlikni bilish referentni anglash bilan birga so'zlovchining qaysi hamjamiyat, avlod yoki madaniy tajribaga yaqinligini taxmin qilishga yordam beradi. Tematik ma'no shu tariqa ijtimoiy metama'lumot tashuvchisiga aylanadi.

Qo'llanish mavzusi va nominativ manbani farqlash tarjimada ham muhim. Agar tarjimon faqat manba obrazini ko'rsa, so'zma-so'z ekvivalent referentni bermasligi mumkin. Faqat qo'llanish mavzusiga qaralsa, slengning obrazli va guruhiiy bo'yog'i yo'qoladi. Shuning uchun

ekvivalent tanlashda uch savol qo'yilishi lozim: birlik nimani bildiradi, qaysi standart obrazdan hosil bo'lgan va adresatda qanday baholovchi ta'sir uyg'otadi? Adams ta'kidlaganidek, sleng tanlovi ma'no bilan birga munosabat va nutqiy pozitsiyani ham bildiradi (Adams, 2009, pp. 49–67).

Tadqiqot natijalari tematik foizlarni ehtiyotkor talqin qilishni talab etadi. 86 birlik mualliflik kartotekasining maqsadli tanlanmasidir; u barcha ingliz slengining chastota korpusi emas. Yuqori faollik birliklar sonini, real nutqdagi ishlatilish chastotasini emas, mazkur kartotekada qayd etilgan nominativ mahsuldorlikni ko'rsatadi. Korpusga asoslangan keyingi tadqiqot og'zaki suhbat, ijtimoiy tarmoq, serial, musiqa, o'yin va talaba nutqi kabi subkorpuslarni alohida qiyoslashi lozim. Stenström va hammualliflar ko'rsatgan so'zlovchi metama'lumotlari ham bunday hisobning zarur qismidir (Stenström et al., 2002, pp. 13–26).

Lug'atchilik amaliyotida har bir birlikka kamida oltita belgi berish taklif etiladi: bosh shakl, sleng ma'nosi, qo'llanish mavzusi, nominativ manba, ilk va so'nggi qayd sanasi, pragmatik-uslubiy belgi. Nozik yoki kamsituvchi birliklarda adresat, tarixiy davr va qo'llanish cheklovi ham ko'rsatilishi kerak. Greening elektron lug'ati tarixiy sitatalar va sana bo'yicha izlashning samaradorligini namoyish etadi (Green, n.d.). Ikki o'qli tematik belgilash ana shu modelni semantik qidiruv bilan boyitadi: foydalanuvchi bir vaqtning o'zida referent sohasi va obraz manbasini ko'ra oladi.

Xulosa. Tadqiqot ingliz slengining tematik tuzilishi birgina mavzular ro'yxati bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Sleng qo'llanadigan soha til jamoasi nima haqida norasmiy gapirishini, nominativ manba esa yangi nom qaysi standart semantik maydondan olinganini bildiradi. Bu ikki o'lchov o'zaro bog'liq, lekin aynan bir hodisa emas. Ularni farqlash sleng birliklarini mantiqan izchil guruhlash, ko'p ma'noli shakllarni tavsiflash va lug'atdagi takrorlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mualliflik kartotekasidagi 86 birlik tahlilida kundalik buyumlar, antroponim, toponim, zoonim, fitonim va somatizmga asoslangan yuqori faol qatlam 54,7 foizni tashkil etdi. Professionalizm, ergonim, rang va raqamlar 32,6 foizlik o'rtacha qatlamni, etnonim, oziq-ovqat, geometrik shakl va tabiat hodisalari 12,8 foizlik past faol qatlamni hosil qildi. Mazkur nisbat konkret, ko'rgazmali va tez tiklanadigan assotsiatsiyalar sleng nominatsiyasida samarali ekanini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan elektron sleng lug'atida qo'llanish mavzusi va nominativ manbani alohida teglash, tarixiy sana hamda pragmatik cheklovni ko'rsatish tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu modelni katta korpus, turli yosh guruhlari, Britaniya va Amerika variantlari hamda raqamli janrlar materialida sinash lozim. Shunda tematik mahsuldorlik bilan real nutq chastotasi, tarixiy

barqarorlik bilan qisqa muddatli moda va mahalliy birlik bilan xalqaro tarqalgan sleng o'rtasidagi farqlar aniqroq yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adams, M. (2009). Slang: The people's poetry. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780195314632.001.0001>
2. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511617881>
3. Coleman, J. (2012). The life of slang. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199571994.001.0001>
4. Damirjian, A. (2025). The social significance of slang. *Mind & Language*, 40(2), 138–156. <https://doi.org/10.1111/mila.12530>
5. Dumas, B. K., & Lighter, J. (1978). Is “slang” a word for linguists? *American Speech*, 53(1), 5–17. <https://doi.org/10.2307/455336>
6. Eble, C. (1996). Slang and sociability: In-group language among college students. University of North Carolina Press.
7. Green, J. (2016). Slang: A very short introduction. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/actrade/9780198729532.001.0001>
8. Green, J. (n.d.). Green's Dictionary of Slang. Retrieved July 30, 2026, from <https://greensdictofslang.com/>
9. Mattiello, E. (2008). An introduction to English slang: A description of its morphology, semantics and sociology. *Polimetrica*.
10. Stenström, A.-B., Andersen, G., & Hasund, I. K. (2002). Trends in teenage talk: Corpus compilation, analysis and findings. John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/scl.8>